

OCHILDIMUROD MIRIY LIRIKASINING BADIY XUSUSIYATLARI (SHE'RIY
JANRLAR VA ULARNING QO'LLANILISHI

Xudoyberdiyeva Ug'iloy Qahramon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19858381>

Annotatsiya. Ochildimurod Miriy o'zbek klassik adabiyotida zullisonaynlik, ya'ni ikki tillilik an'anasini lirikada ham epik poeziyada ham muvaffaqiyat bilan davom ettirgan qalamkashlardan hisoblanadi. Uning o'zbek va tojik tillarida bitgan g'azal va muxammaslari, poema va kichik masnaviyolari hozirgi kunda ham adabiyot ixlosmandlarini maftun etadi. Ushbu maqolada Miriyning g'azallarining tahliliga urg'u beriladi. G'azallarga „Ilmlar uchligi“ Ilmi aruz, ilmi qofiya va ilmi bad'i tomonidan yondashilgan. Miriyning lirikasiidagi ijodiy faoliyatida ohangdorlik, badiiy san'atlarning o'rnida qo'llanilishi alohida ajralib turadi.

Kalit so'zlar: Ochildimurod Miriy hayoti va ijodi, g'azallarining mavzu mundariyasi, aruz, rukn, bahr, paradigma, taqte', badiiy san'atlar, qofiya va uning turlari, nazmiy tahlil

Аннотация. Очилдимурод Мирий считается одним из мастеров слова, который успешно продолжил традиции билингвизма (двуязычия) как в лирике, так и в эпической поэзии узбекской классической литературы. Его газели, мухаммасы, поэмы и малые маснави, написанные на узбекском и таджикском языках, по сей день восхищают любителей литературы.

В данной статье основной акцент сделан на анализе газелей Мирия. Исследование проведено с позиций «триединства наук» о литературе:

Ильм ал-аруз (наука о метрике и ритме);

Ильм ал-кафия (наука о рифме);

Ильм ал-бади (наука об изобразительно-выразительных средствах).

В лирическом наследии Мирия особо выделяются музыкальность стиха и мастерское, уместное использование художественных тропов и фигур.

Ключевые слова: жизнь и творчество Очилдимурода Мирия, тематика и содержание газелей, аруз, бахр, парадигма, такти' (скандирование), художественные средства, тазод (антитеза), китобат, та'сис, дахиль, поэтический анализ.

Abstract. Ochildimurod Miriy is considered one of the prominent writers in Uzbek classical literature who successfully continued the tradition of bilingualism in both lyric and epic poetry. His gazals, mukhammas, poems, and minor masnavis, composed in both Uzbek and Tajik languages, continue to captivate literature enthusiasts today.

This article focuses on the analysis of Miriy's gazals. The poems are examined through the lens of the "Trinity of Sciences":

Ilm al-Aruz (the science of prosody and meter);

Ilm al-Qafiya (the science of rhyme);

Ilm al-Badi (the science of rhetorical figures and artistic ornaments).

In Miriy's lyrical oeuvre, the melodic quality of the verse and the precise, masterful application of artistic devices are particularly distinctive.

Keywords: *life and creative work of Ochildimurod Miriy, thematic scope of gazals, aruz, bahr (meter), paradigm, taqti' (scansion), artistic devices, tazod (antithesis), kitobat, ta'sis, dakhil, poetic analysis.*

Kirish. Ochildi Ne'matulla o'g'li Miriy o'zbek adabiyotining iste'dodli va sermahsul namoyondalaridandir. U 1830-yilda Kattaqo'rg'onning Eshonqishloq qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. 31 yoshida o'qishni bitirgach, uzoq muddat dehqonchilik bilan shug'illangan. So'ng Haydarchaman mahallasida maktabdor-imom, nihoyat, Kalqo'rg'on qozisi bo'lgan.¹

Miriyshunoslikdagi chalkash masalalardan biri shoirning tug'ilgan yili masalasidir.

A. Majidiy Miriyning tug'ilgan yilini 1827 yil deb qayd qilsa, M. Maxmudov 1830 yil deb ko'rsatadi. I. Salohiddinov ham o'zining kandidatlik dissertatsiyasida M. Mahmudovning fikriga qo'shilib, 1830 yilni Miriyning tug'ilgan yili deb e'tirof etadi. Aslini olib qaraganda, bu sanalarning hammasi taxmin va gumon natijasi bo'lib, Miriy asaridagi fakt ularni inkor etadi, Miriy o'zining „Rustam va Suhrob“ asarida poemani yozayotganida necha yoshda ekanligi haqida shunday deydi:

Umr o'tmagidin emas g'amim hech
Dunyo g'amidin ko'ngulda yuz pech
Ellik yil o'tib yetushdi to'qqiz
To'qqiz nafasimcha bo'lmadi tuz

Mazkur asar hijriy 1316 (milodiy 1898) yilda yozilgan. Bas shunday ekan, ana shu yili Miriy 59 yoshda bo'lgan (1316-59-1257). Demak, u hijriy 1257 yilda tug'ilgan ko'rinadi.

Shunday qilib, Miriyning tug'ilgan yilini 1841, vafotini esa 1899 yil deb qabul qilish haqiqatga yaqindir.

Miriy g'oyat murakkab hayot yo'lini boshidan kechirdi: goh dehqonchilik va maktabdorlik qildi, goh imomlik va hatto muhit taqozosiga ko'ra qozilik bilan ham shug'ullandi. Ammo hamma sharoitda ham u haqiqiy, olijanob inson sifatida qolaverdi, omma va uning manfaatlarini himoya qildi. Bu yo'lda u ko'pdan ko'p to'siqlarga uchradi, ta'qib qilindi va xo'rlandi. Ana shunday sharoitda shoirning dunyoqarashi shakllandi va rivoj topdi. Shoir o'z asarlarida bir tomondan, real hayotga, ikkinchi tomondan ilg'or kishilar ma'naviyatidagi go'zallik masalasini dadil o'rtaga tashladi.²

Miriyning lirikasidan joy olgan g'azal, 5 ruboiy, 15 qit'a, 2 voqeband, 3 soqiynoma, 4 tarjeband, 21 muxammasdan Xo'qandiy, Vola, Fuzuliyarga bittadan tazmin, Alisher Navoiyga esa o'n bitta tazmin muxammas bog'lagan.

Ilmi aruz tahlili.

Ish-qi-ngey gul | za'-fa-ron-zor | et-ti yuz qad | dim-ni yo
Ey ka-mon ab | ro' ka-mon qad | dim-niqil-mish | g'am du-to³
Sha-y'a-lil-lah⁴ | deb sa-ri ko' | yung a-ro tut | tum va-tan
Shoh-la-ri-din | ul mu-no-sib | so'r-mo-qah-vo | li ga-do

¹ O'zbek adabiyoti tarixi, 5-tom „Toshkent“ badiiy adabiyot nashriyoti-1966, 287 b

² Abdullayev V. Valixo'jayev B. Miriy va uning zamondoshlari „Fan“ nashriyoti, Toshkent-1977, 16-17 b.

³ Duto-bukilgan, egilgan |

⁴ Arabcha shakli: (Shay'an lillah) iborasi o'zbek tilida asosan tasavvufiy va diniy kontekstda qo'llaniladi

Mu-ni-sim yo'q | dur de-sam ho | lim ra-qi-bim | be-a-dad
Voy-ki-mi ho | lim za-bun a' | do fu-zun⁵ ko'p | mo-ja-ro
Yuz-da xo-ling | mu de-sam qol | mish ko-zum-ni | mar-du-mi | to
Tar-ma-shib hay | rat bi-la boq | g'an-da ul rux | sor a-ro
Ey ko'-ngul-ning | ro-ha-ti ket | mish ta-nim-ni | quv-va-ti
Xas-ta jis-mim | g'a vi-so-ling | din ye-tur-gul | mo'-mi-yo
Chun ta-nim-din | ket-ti quv-vat | tol-pi-nay ko' | yung sa-ri
No-va-ki⁶ mij | gon-la-ring-din⁷ | top-sa sho-yad | jon a-so
Ey ja-mo-ling | sha-m'i yo-di | din bu-zug' ko'ng | lum-g'a nur
Qo-ma-ting an | de-sha-si-din | xas-ta jis-mim | g'a sa-fo
Jo-ni be-mo | rim ko-zung be | mo-ri-din ay | lan-tu-ray
Had-ya-i jo | ning-ti-lab ay | lay ta-nu jo | nim fi-do
No-ta-von⁸ Mi | riy-g'a lut-fung | so-g'a-ri-din | ber na-sib
Bir ta-bas-sum | bir-la o-ning | dar-di-g'a ber | gil da-vo
Afo'iyl: fo-i-lo-tun | fo-i-lo-tun | fo-i-lo-tun | fo-i-lun
Paradigmasi: —v— | —v— | —v— | —v—

Vazn nomi: Ramali musammani mahzuf

Qofiya ilmi tahlili

Qofiyasi: duto, gado, mojarro, aro, mo'miyo, aso, safo, fido, davo

„O' harfi raviiy bo'lib kelgan

Qofiyaning turiga ko'ra: Muqayyad (qaydlangan) qofiya

Mumtoz qofiya tarkibi

Ta'sis-Daxil-Qayd-ridf-RAVIY-Vasl-Xuruj-Mazid-Noira

Gado-davo so'zlaridagi raviiy-o, v-d-daxil g-d-qayd

Badiiy san'atlar ilmi

1-misrada „Kitobat’’ san’ati qo’llanilgan yorning ishqiq g’olibligidan oshiqning qaddi yetti yuz marotaba „Yo’’ ʻ harfiga o’xshatilmoqda.

2-misrada „Takrir’’ kamon abro’ va kamon qad

4-misrada „Tazod’’ san’ati shoh va gado

8 va 9-misrada „Tanosub’’ san’ati yuz, ruxsor, ko’z, mardum

10-misrada „Tazod’’ xasta jismini shifobaxsh ya’ni davolamoq

18-misrada ham „Tazod’’ dard va davo

Nazmiy tahlil

1. Ey gul sening ishqiq za’faranzor bo’lganligi uchun qaddi-qomatim yetti yuz marta „yo’’ harfiga o’xshab bukildi chunki sening kamon qoshing kamon qaddimni g’am bilan egiltirdi.

⁵ Fuzun-ortiq, ziyoda

⁶ Novaki-kamon o’qi

⁷ Mijgonlaring-kipriklar

⁸ Notavon-ojiz, zaif

2. Allohning ismi bilan boshlab, sening ishq ko'yingni makon tutdim. Dilkashim yo'qdir desam, holatim raqibimdan ham ko'pdir. Voyki, ojiz holatda bo'lsam ham dushmanim ortiq, mojarolarim ko'p

3. Sening yuzingaro hayrat bilan boqib qaraganimda, ko'zimning qorachig'i yuzingdagi xolingda qoldi

4. Ey mening ko'nglimning rohati ham tanimning quvvati ham ketdi. Mening xasta jismimni visoling shifobaxsh qilsin.

5. Chunki tanimdan quvvat ketganligi uchun sening ko'ying sari talpinyapman. Shoyadki, kamon o'qidek kuchli kipriklaringdan jonim huzur topar

6. Jamolingdagi yorug'lik yodidan buzug' ko'nglimga nur kelar. Sening bo'y-bastingni o'ylash tashvishi mening xasta jismimga poklik, tozalik keltirur

7. Jonim bemor ko'zing bemoridan aylantirsam hadyaga joningni tilab o'zim tanimni fido aylay

8. Marhamatingdan Miriyning ojiz qalbiga ishqingdan nasib qil. Bir tabassum bilan uning dardiga davo bergil.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ochildimurod Miriy lirikasining mavzu ko'lami ancha boydir. Siz bilan tahlil qilib o'tgan birgina ushbu g'azalining tahlilida olam-olam ma'no topsa bo'ladi. Jumladan, misralardagi badiiy san'atlarning to'g'ri qo'llanilganligi, Aruz vazning Ramal bahrida yozilganligi ya'ni Ramali musammani mahzuf. G'azalning o'qilishi va tushunilishi qulay.

G'azal mavzusiga ko'ra oshiqona turiga kiradi. Oshiq mashuqani yaxshi ko'rib qolgan yorning har qarashi oshiqni xarob qilmoqda. Yorning birgina tabassumi ham mashuqning buzug' ko'ngliga poklik va xasta ko'ngliga davo beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek adabiyoti tarixi 5-tom „Toshkent- badiiy adabiyoti“ nashriyoti-1965, 287 b.
2. V. Abdullayev B. Valixo'jayev Miriy va uning zamondoshlari „Fan“ nashriyoti Toshkent-1977 16-17 b.
3. Miriy Tanlangan asarlar „Toshkent-badiiy adabiyot“ nashriyoti 1965, 13-b.
4. S. Tohirov Aruz vazn qoidalari, o'quv qo'llanma, Samarqand davlat universiteti -2019, 51-52 b.